



QIPCHOQ SHEVASIGA OID ANTROPONIMLARNING SEMANTIK TAHLILI

Qobilov Mirziyo Eshnozard o‘g‘li,

Termiz davlat universiteti o‘zbek tilshunosligi kafedrasida o‘qituvchisi.

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15204521>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek tilidagi qipchoq shevasiga oid antroponimlarning etimologik, lingvokulturologik va lingvistik xususiyatlari o‘rganilgan. Tadqiqot doirasida bir nechta qadimiy qipchoq ismining kelib chiqishi, ma‘no tarkibi, grammatik tuzilishi va tarixiy-madaniy ahamiyati tahlil qilingan. Qipchoq shevasiga oid antroponimlarning o‘ziga xos xususiyatlari, ularning o‘zbek antroponimik tizimidagi o‘rni va ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar. antroponimika, qipchoq shevasi, etimologiya, lingvokulturologiya, lingvistik tahlil, shaxs nomlari, turkiy ismlar.

Kirish. Antroponimlar har bir millatning madaniy, tarixiy va lingvistik xususiyatlarini aks ettiruvchi nodir manbalardan biri hisoblanadi. O‘zbek xalqi tarkibida qipchoq urug‘lariga mansub aholi guruhlari mavjud bo‘lib, ularning shevalari va antroponimlari alohida o‘rganishni talab etadi. Qipchoq shevasiga xos antroponimlar o‘ziga xos fonetik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlarga ega bo‘lib, ular turkiy tillar tarixini, xalq turmush tarzi, urf-odatlarini va qadriyatlarini o‘rganishda muhim manba vazifasini o‘taydi.

Mazkur maqolada qipchoq shevasiga oid nomlar, jumladan, **Jorqin**, **O‘ngal**, **Toylaq** va **Qo‘yash** ismlarining etimologik, lingvokulturologik va lingvistik xususiyatlari tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Antroponimlarning o‘rganilishi jahon miqyosida ham keng tarmoqli bo‘lib, bu esa ushbu yo‘nalishning naqadar muhim ekanligidan dalolat beradi. Jumladan, Fransiyalik olim Albert Dauzat ham antropimlar bo‘yicha bir qancha ishlarni amalga oshirgan, bularga: «*Les noms de personnes: origine et évolution*» (*Shaxs nomlari: kelib chiqishi va evolyutsiyasi*), 1925. – «*Les noms de lieux*» (*Joy nomlari*), 1937. Albert Dauzat fransuz antroponimlari tarixini tadqiq etib, ularning etimologiyasi va tarixiy taraqqiyotini o‘rgangan. U antroponimlarni tarixiy-etimologik nuqtayi nazardan tasniflash tizimini ishlab chiqqan. Dauzat fransuz familiyalarini kelib chiqishini to‘rt guruhga ajratgan. (1-rasm)



Fransuz familiyalarining kelib chiqishi: Dazat tahlili bo‘yicha

shaxs ismidan kelib chiqqan familiyalar;	jismoniy va ma'naviy xususiyatlarni anglatuvchi familiyalar;	kasb-hunarni anglatuvchi familiyalar;	geografik joylardan olingan familiyalar.
------------------------------------------	--------------------------------------------------------------	---------------------------------------	------------------------------------------

Dazart o‘zining «Shaxs nomlari: kelib chiqishi va evolyutsiyasi» risolasida «Fransuz familiyalari XI-XII asrlarda paydo bo‘la boshlagan va ularning ko‘pchiligi avloddan avlodga o‘tuvchi xususiyat kasb etgan» [1; 45] degan ma‘lumotni berib o‘tadi.

Bundan tashqari, rus olimi Vladimir Nikonov ham slavyan xalqlari antropnimikasi bo‘yicha ko‘plab ishlarni amalga oshirgan. U shu asosda rus antropnimkasining asoschisi deya talqin qilinadi. U antropnimlarni ijtimoiy, geografik va etnolingvistik jihatdan tadqiq etgan. Shu bilan birgalikda, ushbu yo‘nalish bo‘yicha bir qancha lug‘at va kitoblar ham nashr ettirgan bo‘lib ular quyidagilardir: – «Имя и общество» (Ism va jamiyat), 1974. – «География фамилий» (Familiyalar geografiyasi), 1988. – «Словарь русских фамилий» (Rus familiyalari lug‘ati), 1993. Bundan tashqari, Nikonov rus ismlarining ijtimoiy qatlamlanishini o‘rganib, XIX asr oxirigacha ismlar ijtimoiy maqomga ko‘ra farqlangani, ya’ni zodagonlar va dehqonlarning ismlari turlicha bo‘lganini aniqlagan. Nikonovning fikricha «Har qanday ism uch maydon kesishmasida mavjud: til, jamiyat va madaniyat. Ismlarni faqat lingvistik jihatdan o‘rganish to‘liq emas; ular ijtimoiy va madaniy kontekstda ko‘rib chiqilishi kerak». [2; 33]

Jahon tilshunosligidagi o‘rganilish ishlarini yana bir qadar davom ettirishimiz mumkin, masalan, A.Superanskaya (Rossiya) antropnimlarni lingvistik jihatdan tahlil qilar ekan, ularning fonologik, morfologik va leksik xususiyatlarini alohida ajratib ko‘rsatadi. [3; 87]

Gerhard Bauer (Germaniya) esa nemis antropnimlarining tarixiy taraqqiyoti, ularning etimologiyasi va madaniy ahamiyatini o‘rgangan. [4; 55]

Bruce Lansky (AQSH) ham bu borada ko‘plab tadqiqotlarni amalga oshirgan bo‘lib, xususan, zamonaviy yo‘nalish asosida ish ko‘rgan, uning «100,000+ Baby Names» (100,000+ chaqaloq ismlari), 2006-yilgi kitobi, bundan tashqari, «1990-yillardan boshlab, AQSHda ismlar tanlashda an’anaviy va oilaviy ismlardan ko‘ra, teleko‘rsatuvlar, filmlar va mashhur insonlar ismlari tanlash tendensiyasi 3 baravardan ortiq o‘sganini ko‘rishimiz mumkin» fikri ham buning yaqqol isbotidir. [5; 25]

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



O‘zbek tilshunosligida ham bu kabi izlanishlar olib borilgan, ammo antroponimka bo‘yicha qilinayotgan ishlar qanchalik ko‘p bo‘lmasin, ular rang-barang bo‘lib, bir-birini to‘ldirib bormoqda. Prof. E.Begmatovning o‘zbek antroponimikasi bo‘yicha olib borgan tadqiqotlari katta ahamiyatga ega bo‘lib, u o‘zbek antroponimikasining asoschisi hisoblanadi. Olim o‘zbek ismlarining leksik-semantik, tarixiy-etimologik va uslubiy xususiyatlarini chuqur o‘rgangan. E.Begmatov o‘zbek ismlarini kelib chiqishiga ko‘ra turkiy, forsiy, arabiy qatlamlarga ajratgan va turkiy qatlamning asosiy semantik guruhlarini aniqlagan. «O‘zbek ismlari tizimida turkiy ismlar o‘zining qadimiy ildizlari, boy semantikasi va xalq turmush tarzi bilan chambarchas bog‘liqligi bilan ajralib turadi. Masalan, Toshtemir, Temurqul, Boltabek kabi ismlar turkiy xalqlarga xos metaforik fikrlash va tabiat hodisalariga bo‘lgan e‘tiqodiy munosabatlarni aks ettiradi». [6; 608] O‘zbek ollimlaridan yana biri T.Nafasov ham ushbu sohaga katta hissa qo‘shgan bo‘lib, o‘zbek laqablari va taxalluslarini tadqiq etgan hamda ularning lingvistik xususiyatlari, yasalishi va motivatsion asoslarini o‘rgangan. Olimning fikricha, «O‘zbek laqablari antroponimik tizimning ajralmas qismi bo‘lib, ular shaxsning tashqi ko‘rinishi, xulq-atvori, kasbi yoki ijtimoiy mavqei kabi belgilariga ko‘ra beriladi. Masalan, “Kallavoy”, “Qorako‘z”, “Chaqqon” kabi laqablar semantik jihatdan shaxsning tashqi belgilarini aks ettiradi». [7; 33]

Jahon va o‘zbek tilshunosligida antroponimlarning o‘rganilishi ko‘p qirrali xarakterga ega bo‘lib, turli yo‘nalishlarda olib borilgan. Jumladan, antroponimlarning tarixiy-etimologik, struktur-semantik, lingvokulturologik, etnolingvistik, pragmatik, dialektal-hududiy va qiyosiy jihatdan o‘rganilishi shular jumlasidandir.

Jahon tilshunosligida antroponimlar tadqiqi A.Dauzat, V.Nikonov, A.Superanskaya, G.Bauer, W.Nicolaisen kabi olimlar tomonidan boshlab berilgan bo‘lsa, o‘zbek tilshunosligida ushbu yo‘nalish E.Begmatov, T.Nafasov, H.Do‘simbetov, Z.Do‘simov kabi olimlar ishlari bilan rivojlangan. Antroponimlarni o‘rganish orqali xalqning tarixi, madaniyati, qadriyatlarini, etnogenezi, til taraqqiyoti, etnik aloqalari va boshqa ko‘plab masalalar bo‘yicha qimmatli ma‘lumotlar olish mumkin. Shu sababli antroponimlarni tadqiq etish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya, madaniyatshunoslik, sotsiologiya kabi fanlar uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Asosiy qism. Antroponimlarning sheva va lahjalardagi variantlashuvi, ularning leksik, semantik, morfologik tahlili, shu bilan birgalikda nomlarning etimologik tadqiqi ham bir qadar zaruriy yo‘nalishlardan biridir. Shu o‘rinda biz ham qipchoq shevasida mavjud ba‘zi ismlarning tahlil jarayonini amalga oshirdik. «**Jorqin**» ismi



qipchoq shevasiga xos antroponim bo‘lib, etimologik jihatdan qadimgi turkiy til qatlamiga mansub. Ushbu ism ikki komponentdan tashkil topgan:

1. **“Jor/Jar”** – qipchoq shevasidagi «j»lashish hodisasining yaqqol namunasidir. Boshqa o‘zbek shevalarida bu komponent «yor» shaklida uchraydi va «yorug‘lik», «nur» ma’nolarini anglatadi. Qadimgi turkiy tilda «jar-» ildizi «yalt-yult qilmoq», «porlamoq» ma’nolarini ifodalagan.

2. **“-qin”** – turkiy tillarda fe‘ldan sifat yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, intensivlikni, kuchaytirishni bildiradi. Shuningdek, bu qo‘shimcha orqali «yorqin», «toshqin», «keskin» kabi sifatlar yasalgan. Demak, «Jorqin» ismining leksik ma’nosi «yorqin», «porloq», «nurafshon» deganidir. Bu ism egasining kelajagi yorug‘, hayoti porloq bo‘lishi istagi bilan qo‘yilgan. E.Begmatovning «O‘zbek ismlarining ma’nosi» kitobida ham «hayoti yorqin, nurli, ravshan bo‘lsin» [6; 134] mazmuni berib o‘tilgan. Fonetik jihatdan «Jorqin» ismida qipchoq shevasiga xos «j»lashish hodisasi ko‘rinadi. Qipchoq lahjasiga mansub o‘zbek shevalari, qozoq, qoraqalpoq tillarida «y» tovushi «j» tarzida talaffuz qilinadi. Bu esa mazkur ismning, aynan, qipchoq lahjasiga xosligini belgilovchi asosiy xususiyatdir.

Grammatik tuzilishi jihatidan «Jorqin» asosi «jar-» fe‘ldan «-qin» qo‘shimchasi yordamida yasalgan ism hisoblanadi.

Qipchoq shevasi vakillari orasida keng tarqalgan ismlardan biri **«O‘ngal»** ismi bo‘lib, u ham qadimgi turkiy tilga borib taqaladigan qipchoq shevasiga oid antroponimidir. Bu ismni ma’lumotlarga tayangan holda quyidagicha tahlil qildik:

1. **“O‘ng”** – qadimgi turkiy tilda bir necha ma’noni anglatgan: – «o‘nglamoq», «tuzatmoq», «to‘g‘rilamoq»; «baxt», «omad», «yaxshilik»; «o‘ng tomon» – g‘arb turkiy tillarda sharqni ham ifodalagan (qadimgi turkiylar uchun sharq muqaddas yo‘nalish hisoblangan)

2. **“-al”** – qadimgi turkiy tilda fe‘ldan ot yasovchi qo‘shimcha bo‘lib, «bajaruvchi», «ijro etuvchi» ma’nolarini ifodalagan. Shunday qilib, **«Öngül»** ismining ma’nosi xalq etimologiyasida «tuzatuvchi», «to‘g‘rilovchi», «baxtli», «omadli» yoki «to‘g‘ri yo‘ldan boruvchi» degandir. Ushbu antroponim bevosita milliy-madaniy xarakterga ega. Chunki qadimgi turkiylarda «o‘ng» tushunchasi ijobiy konotatsiyaga ega bo‘lgan. Chunki «o‘ng tomon» – baxt va omad ramzi hisoblangan. Shuning uchun, bu ismning qo‘yilishi orqali bola hayotining baxtli, to‘g‘ri va omadli bo‘lishi tilangan.

Fonetik xususiyati jihatidan qipchoq shevasida bu ism ko‘pincha Öngäl tarzida (burung tovushi bilan) talaffuz qilinishi mumkin.

«Toylaq» ismi qipchoq urug‘lari orasida keng tarqalgan qadimgi ismlardan biri bo‘lib, quyidagi etimologik asosga ega:



1. “**Toy**” – «*yosh ot*», «*g‘unajin ot*» ma’nosini anglatadi. Bu ildiz ko‘plab turkiy tillarda uchraydi.

2. “**-laq**” – kichraytirish, erkalash ma’nosini beruvchi qo‘shimcha. Turkiy tillarda «*tashlaq*», «*otlaq*», «*o‘g‘laq*» kabi so‘zlarda ham uchraydi.

«Toylaq» ismining umumiy ma’nosi «*kichik toy*», «*yosh, kuchli ot*» degandir. Qadimgi ko‘chmanchi turkiy xalqlar hayotida ot alohida o‘rin tutgan, shu sababli farzandlarining kuchli, chaqqon, bardoshli bo‘lishini istab, ularga ot bilan bog‘liq ismlarni qo‘yishgan. Shu ma’noda ushbu ism mental xarakter kasb etadi. Lingvokulturologik jihatdan bu ism egasi kuchli, chaqqon, bardoshli va erkin bo‘lsin, degan istak bilan qo‘yilgan. Ko‘chmanchi madaniyatda ot erkinlik, kuch-qudrat va hayotiylik ramzi hisoblangan.

Grammatik tuzilishi jihatidan «Toylaq» «*toy*» otiga «*-laq*» affikisoidi qo‘shilishi orqali yasalgan yasama ism hisoblanadi.

«**Qo‘yash**» ismi qipchoq shevasiga xos bo‘lgan quyosh so‘zining fonetik variantidir. Ushbu antroponim quyidagicha tahlil qilinsa o‘rinli bo‘ladi, nazarimizda:

1. “**Quy-/Qo‘y-**” – turkiy tillarda «*quyosh*» so‘zining asosi hisoblanadi. Boshqa turkiy tillarda «*kün*», «*künäş*» shakllari ham uchraydi.

2. “**-ash/-aş**” – turkiy tillarda ot yasovchi qo‘shimcha.

«Qo‘yash» ismining ma’nosi «*quyosh*», «*quyoshday porloq*» degandir. Fonetik jihatdan, qipchoq shevasiga xos xususiyat sifatida «quyosh» so‘zidagi «u» tovushi «o‘»ga, «o» esa «a»ga o‘zgargan. Ushbu ism ham lingvomadaniy xarakterga ega. Chunki quyosh turkiy xalqlar uchun hayot, issiqlik, yorug‘lik manbai hisoblangan va muqaddas sanalgan. Farzandga bu ismni qo‘yish orqali uning hayoti porloq, issiq va yorqin bo‘lishi tilanadi. E.Begmatovning “O‘zbek ismlari ma’nosi” kitobida ushbu ismga “tolei quyoshdek porloq bo‘lsin, quyosh farzandi, go‘zal, zebo” mazmuni berib o‘tilgan. [6; 549]

Yuqoridagi tahlillarni umumlashtirib, quyidagicha ko‘rsatishimiz mumkin:

1. Fonetik xususiyatlar:

- «j»lashish hodisasi: «Jorqin» (boshqa shevalarda «Yorqin»);
- «ŋ» burung tovushining qo‘llanilishi: «Öngäl»;
- unlilar almashinuvi: «Qo‘yash» (boshqa shevalarda «Quyosh»).

2. Leksik-semantik xususiyatlar:

- tabiat hodisalari bilan bog‘liq ismlar: «Qo‘yash», «Jorqin»;
- hayvonlar bilan bog‘liq ismlar: «Toylaq»;
- ijobiy fazilatlar: «O‘ngal».

3. Morfologik xususiyatlar:

- asosan, ot-fe‘l strukturasidagi ismlar;

“O‘ZBEK FILOLOGIYASI: MUAMMO VA YECHIMLAR” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani



- fe’ldan ot yasovchi qo‘shimchalar: «-qin», «-al»;
- kichraytirish-erkalash qo‘shimchalari: «-laq».

4. Grammatik tuzilishi bo‘yicha tasnif:

- yasama ismlar: «Toylaq», «Qo‘yash», «Jorqin», «O‘ngal».

Xulosa. O‘zbek tilidagi qipchoq shevasiga oid antroponimlar o‘ziga xos fonetik, leksik-semantik va grammatik xususiyatlarga ega. Ularning etimologik tadqiqi qadimgi turkiy xalqlar, xususan, qipchoq urug‘larining dunyoqarashi, madaniyati, urf-odatlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga ega.

Yuqorida biz murojaat qilgan qipchoq shevasiga oid ismlarning tahlil jarayonidan shu ma’lum bo‘ldiki, qipchoq shevasidagi ismlar, asosan, tabiat hodisalari, hayvonot dunyosi, ijtimoiy-iqtisodiy tushunchalar va ijobiy fazilatlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Bu ismlarning grammatik tuzilishi va yasaliş usullari ham o‘ziga xos bo‘lib, ular turkiy tillarning tarixiy taraqqiyotini o‘rganishda nodir manba hisoblanadi.

Qipchoq shevasiga oid antroponimlarning lingvokulturologik jihatlari ham diqqatga sazovor. Chunki bu ismlar orqali qadimgi qipchoq urug‘larining dunyoqarashi, qadriyatlarini va e’tiqodlari o‘z aksini topgan. Ismlarda aksariyat hollarda farzandning kelajagi yorqin, kuchli, boylikka to‘la, baxtli-saodatli bo‘lishi tilangan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Dauzat A. «Les noms de personnes: origine et évolution». 1925.
2. Nikonov V. «Имя и общество». 1974.
3. Superanskaya A. «Общая теория имени собственного». – URSS, 1973.
4. Bauer G. «Namenkunde des Deutschen». – Bern, New York, 1985.
5. Lansky B. «The New Baby Name Survey Book». – New York, 1994.
6. Begmatov E. O‘zbek ismlar ma’nosi. – O‘zbek tilining milliy ensiklopediyasi, – Toshkent. 2007.
7. Nafasov T. O‘zbek laqablari. – 1989
8. Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘qituvchisi ensiklopediyasi. – Toshkent: Navro‘z, – 2015.
9. Doniyorov X. Qipchoq dialektlarining leksik xususiyatlari. – Toshkent: Fan, 1979.
10. Nafasov T. O‘zbekiston hududidagi joy nomlari va ularning etimologiyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1988.
11. Sevortyan E.V. Etimologicheskiy slovar tyurkskix yazikov. – Moskva: Nauka, 1974-1980.
12. Koshg‘ariy M. Devonu lug‘otit turk. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2017.